



## BOSHLANG'ICH SINFLARDA ZAMONAVIY AXBOROT TEKNOLOGIYALARINI QO'LLASH

**Ruziqulova Elmira**

*Qashqadaryo viloyati Ko'kdala tumani 14-maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarda axborot texnologiyalaridan samarali foydalanishning naqadar ahamiyatli ekanligi haqida ma'lumotlar keltirildi. Hozirgi kunda ommalashib borayotgan axborot texnologiyalari haqida ma'lumotlar berib o'tiladi. Shuningdek, mazkur mavzu yuzasidan bir qancha adabiyotlar tahlil qilindi. Hamda axborot texnologiyalaridan dars jarayonida samarali foydalanish uchun bir qancha metodlar berib o'tildi. Bundan tashqari ta'lim samaradorligini oshirishda axborot texnologiyalarning ahamiyat va boshlang'ich sinf o'quvchilarida zamonaviy axborot texnologiyalarini qo'llash tartibi xususidagi masalalar haqida fikr yuritilgan.*

**Kalit so'zlar:** *Axborot texnologiyalari, kommunikatsiya, interfaol, individual ta'lim, boshlang'ich, zamonaviy o'qitish metodlar.*

**Kirish.** Ta'limdagi islohatlar natijasida o'quv jarayoniga yangi axborotkommunikatsiya va pedagogik texnologiyalarini, elektron darsliklar hamda multimedia vositalarini keng joriy etish hisobiga mamlakat maktablari, kasb-hunar kollejlari va litseylarida, oliy ta'lim muassasalarida ta'lim berish sifatini tubdan yaxshilash, ta'lim muassasalarining o'quv-laboratoriya bazasini eng zamonaviy o'quv va laboratoriya uskunalari, kompyuter texnikasi bilan mustahkamlash, shuningdek, o'qituvchilar va murabbiylarning mashaqqatli mehnatini moddiy hamda ma'naviy rag'batlantirishning samarali tizimini shakllantirish zarurdir. Ta'limning maqsadi jamiyat ehtiyojiga mos ravishda shakllanadi. Shunday ekan, ta'lim-tarbiya maqsadi mos va mutanosib bo'lishi kerak. Ilmiy adabiyotlarda ta'limning maqsadi imkoniyatlaridan to'g'ri, aniq, o'rinli foydalanish ko'nikma va malakalarini hosil qilish, mantiqiy-ijodiy tafakkurni rivojlantirish, kommunikativ savodxonlikni oshirish, milliy g'oyani singdirish, sharqona tarbiyani shakllantirish, shaxsni ma'naviy boyitishdan iboratligi ta'kidlangan. Ta'limiy maqsad asosida o'quvchilarda mustaqil fikrlash, og'zaki va yozma savodxonlikni oshirish, mantiqiy tafakkurni rivojlantirish orqali ularning muloqot madaniyati takomillashtiriladi. Tarbiyaviy maqsad asosida esa ma'naviy, g'oyaviy, nafosat tarbiyasi beriladi. Til o'rganish jarayonida xalqning madaniy-axloqiy qadriyatlariga yaqinlashtirish imkoni paydo bo'ladi.

**Asosiy qism:** O'quv jarayoni bilan bog'liq ta'lim sifatini belgilovchi holatlar quyidagilar: yuqori ilmiy-pedagogik darajada dars berish, muammoli ma'ruzalar o'qish, darslarni savol-javob tarzida qiziqarli tashkil qilish, ilg'or pedagogik texnologiyalardan va mul'timedia vositalaridan foydalanish, tinglovchilarni undaydigan, o'ylantiradigan muammolarni ular oldiga qo'yish, talabchanlik,



tinglovchilar bilan individual ishlash, erkin muloqot yuritishga, ilmiy izlanishga jalb qilishdir.

Ta'limning maqsadi jamiyat ehtiyojiga mos ravishda shakllanadi. Shunday ekan, ta'lim-tarbiya maqsadi mos va mutanosib bo'lishi kerak. Ilmiy adabiyotlarda ta'limning maqsadi imkoniyatlaridan to'g'ri, aniq, o'rinli foydalanish ko'nikma va malakalarini hosil qilish, mantiqiy-ijodiy tafakkurni rivojlantirish, kommunikativ savodxonlikni oshirish, milliy g'oyani singdirish, sharqona tarbiyani shakllantirish, shaxsni ma'naviy boyitishdan iboratligi ta'kidlangandir. Ta'limiy maqsad asosida o'quvchilarda mustaqil fikrlash, og'zaki va yozma savodxonlikni oshirish, mantiqiy tafakkurni rivojlantirish orqali ularning muloqot madaniyati takomillashtiriladi. Tarbiyaviy maqsad asosida esa ma'naviy, g'oyaviy, nafosat, nazokat tarbiyasi beriladi. Ma'lumki, ta'limda ilg'or pedagogik va yangi axborotlar texnologiyalarini tatbiq etish o'quv mashg'ulotlarining samaradorligini oshiribgina qolmasdan, ilm-fan yutuqlarini amaliyotda qo'llash orqali mustaqil va mantiqiy fikrlaydigan, har tomonlama barkamol yuksak ma'naviyatli shaxsni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Axborot texnologiyalarini ta'lim tizimiga tatbiq etish o'quv jarayonida zamonaviy o'qitish metodlarini qo'llashga keng imkoniyatlar ochadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 5 nozbrdagi "Raqamli O'zbekiston - 2030 strategiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PF-6079-son farmonida asosida ta'lim jarayonida axborot texnologiyalarni qo'llash uzasidan qator vazifalarni belgilab beradi. Axborot texnologiyalari jamiyat tuzilmasining shu qadar ajralmas qismiga aylanib ulgurdi, endi u shunchaki texnologik jarayon emas, aksincha, ijtimoiy jarayonga aylanib bormoqda. Davlatning iqtisodiy qudrati, xalqaro nufuzi, demokratik institutning rivoji darajasi axborot texnologiyalarning tadqiqotiga bog'liq bo'lib bormoqda. Axborot insoniyatning nixoyatda muhim va cheksiz resursiga aylandi. Bu esa qaysi sohaga bo'lishidan qat'iy nazar, internetning milliy sigmentida o'z axborotlarimizni tobora ko'paytirib borishni taqozo etadi. O'qitish va o'rganish jarayonida Internet texnologiyalariga katta o'rin ajratilmoqda. Bunday texnologiyalar ta'lim jarayoniga ko'maklashib, o'qitish dasturlari, o'quv qo'llanmalari, elektron darsliklar va jurnallardan foydalanish imkoniyatini yaratmoqda, bu esa o'z navbatida foydalanuvchilarga ilmiy maktab ishlarini ta'minlamoqda. O'quvchilarni internetdan olayotgan axborotlariga tanqidiy yondoshish va uning foydali manbalari asosida o'z duyoqarashini kengaytirish, g'arazli manbalar asosida o'z dunyoqarashini kengaytirish, g'arazli ma'lumotlarni inkor eta bilish g'oyat muhimdir. Boshlang'ich sinflar o'quvchilari uchun turli didaktik materiallar to'plamidan foydalanib, ko'rgazmali-mashq, nazorat-mashqlari va test sinovlari modullari kiritilgan aralash kompyuter dasturlarini tayyorlash mumkin. Unga fanga oid qoidalarni joriy o'rganish va umumlashtirilgan takrorlash uchun uchta variantlarda berilgan grammatika-orfografik mavzular bo'yicha boy va turli-tuman materiallardan foydalanish yaxshi samara beradi. Matematika darslarida «O'yinli masalalar» dasturlarini tayyorlab,





foydalanish mumkin. Boshlang'ich sinfda o'rganiladigan ko'plab mavzular bo'yicha turli materiallar berilgan. Turli murakkablik darajasidagi turli xildagi topshiriqlar har bir o'quvchining idrok etish va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi.

Bugungi kunda ta'limda «Aqliy hujum», «Fikrlar hujumi», «Tarmoqlar» metodi, «Sinkveyn», «BBB», «Beshinchisi ortiqcha», «6x6x6», «Bahs-munozara», «Rolli o'yin», FSMU, «Kichik guruhlarda ishlash», «Yumaloqlangan qor», «Zigzag», «Oxirgi so'zni men aytay» kabi zamonaviy texnologiyalar qo'llanmoqda.

O'qitishning axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanilgan tadqiqotchilik metodi ta'lim oluvchilarning ma'lum darajada ilmiy texnik tadqiqot olib borish jarayonidagi mustaqil ijodiy faoliyatni ko'zda tutadi. Bu metoddan foydalanilganda ta'lim faol tadqiqot, kashfiyot va o'yin natijasi sanaladi, buning natijasida, odatda, yuqorida sanab o'tilgan metodlardan foydalanilganidan ko'ra yoqimliroq va muvaffaqiyatliroq bo'ladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilaridalarda interfaol metodlar va ta'limiy o'yinlardan, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish o'quvchilarni mustaqil fikrlashga, ijodiy izlanish va mantiqiy fikrlash doiralarini kengaytirish bilan birga ularni darslarda o'rganganlarini hayot bilan bog'lashga, qiziqishlarini oshirishga yordam beradi. O'qituvchilarning bunday zamonaviy talablar asosida yaratilgan sharoitlardan samarali foydalanib, darslarni ilg'or pedagogik hamda axborot kommunikatsiya texnologiyalari asosida tashkil etilishi ta'lim-tarbiya jarayonining sifatini kafolatlaydi.

**Xulosa urnida aytish mumkinki:** o'qituvchi axborot texnologiyalaridan to'g'ri va samarali foydalansa, o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishi, bilim olishga bo'lgan ishtiyoqi va o'ziga bo'lgan ishonchi ortib, mustaqil fikri rivojlana boradi. O'qituvchi esa darsda o'z oldiga qo'ygan maqsadiga oson erishadi. Faqatgina o'quv jarayonida axborot texnologiyalari darsning asosiy tayanchi emas, balki bolaga yangi ma'lumotlarni, tushunchalarni osonlik bilan yetkazib berish hamda esda saqlashiga yordam beruvchi vosita sifatida qaralishi lozim. Boshlang'ich sinflarda zamonaviy axborotkommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish o'quvchilarni mustaqil fikrlashga, ijodiy izlanish va mantiqiy fikrlashlarini kengaytirish bilan birga ularni darslarda o'rganganlarini hayot bilan bog'lash hamda darsga qiziqishlarini oshirishga yordam beradi.. Aytish joizki, multimedia ilovalarini har bir darsda qo'llash natijasida o'quvchilarda mustaqil, ijodiy fikrlash yana-da rivojlanadi.

## ADABIYOTLAR:

1. R. A. Mavlonova, N.H.Rahmonqulova, K.O.Matnazarova, M. K. Shirinov, S.Hafizov. Umumiy pedagogika. – Toshkent: “Fan va texnologiya nashriyoti”, 2020
2. A. Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2018.



3. Bikbayeva N.U, Yangabayeva E, K.Girfanova "Kichik yoshdagi maktab o'quvchilarini boshlang'ich matematik ta'limning Davlat ta'lim standartlari asosida o'qitish" : – 2008, "Turon – Iqbol", 8 bet.
4. Maxmatqulov , G. X. (2023). "Kompyuter tizimlari va tarmoqlari" fanidan amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarini o'qitishda virtual cisco packet tracer dasturidan foydalanish. Educational Research in Universal Sciences, 2(15 SPECIAL), 483–486. Retrieved from
5. Maxmatqulov, G. O. (2022). A COMPLEX SYSTEMIC ISSUE OF THE DEVELOPMENT OF THE NETWORK OF TRADE SERVICES. Development and innovations in science, 1(16), 10-13.
6. Махматқулов, Ғ. (2023). Савдо корхоналарининг инновацион фаолиятини эконометрик моделлаштириш. Iqtisodiyot Va ta'lim, 24(6), 33–38. [https://doi.org/10.55439/ECED/vol24\\_iss6/%x](https://doi.org/10.55439/ECED/vol24_iss6/%x)
7. Maxmatqulov, G. K., & Malikova, N. T. (2019). STOCHASTIC MODEL ACTIVITY SYSTEM OF RAIL TRANSPORT. European Science Review, 1(1-2), 152-156.
8. Махматқулов, Ғ. (2022). Аҳолига савдо хизматларини инновацион ривожлантириш салоҳиятини баҳолашда тренд моделларини танлаш мезонлари (қашқадарё вилояти мисолида). Iqtisodiyot Va ta'lim, 23(4), 381–386.
9. Maxmatqulov, G. X. (2023). Savdo xizmatlari tarmog'ini rivojlantirish masalalariga tizimli yondoshuv. Educational Research in Universal Sciences, 2(10), 175–182.